



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 10 2021 YIL 22 NOYABR



## TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Inson sog'lig'ini asrash va mustahkamlashdek ishga o'z hayotini bag'ishlagan siz, azizlarni Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan chin qalbimdan tabriklayman. Sizlarning timsolingizda xalq salomatligi yo'lida o'z halovatidan kechib, kunni tunga ulab, fidokorona mehnat qilayotgan sharafli kasb egalarini ko'ramiz.

Eng mashaqqatli va shu bilan birga sharafli kasblardan biri shifokorlik kasbi hisoblanadi. Chunki, bizning mahoratimiz, malakamiz, mas'uliyatimiz insonlarning hayoti va taqdirdira o'rinn egallaydi. Yurtimiz hududida qadimdan ko'plab shifo maskanlari, tibbiy madrasalar faoliyat yuritgan. Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz yaratgan bebaho asarlar, ularning dori-darmon tayyorlash va davolash usullari butun jahonda mashhur bo'lgan.

Jamiyatimizning barcha sohalari qatorida, mamlakatimizda tibbiyotning rivojlanishi, sifatli tibbiyot xizmatlaridan foydalanishlari, shifokorlarning bilimlari, ko'nikmalari, mahoratlarini oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimiz ham COVID-19 pandemiyasini boshidan o'tkazmoqda. Bu sinovli davrda shifokorlarimiz o'z mahorat va mas'uliyatlarini namoyon etib, ko'rinmas yov bilan mardonavor kurash olib

borib, buyuk jasorat ko'sratib kelmoqdalar.

Toshkent tibbiyot akademiyasi sog'liqni saqlashning zamoniyo yo'naliishlari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlaydigan nufuzli oly ta'lim muassasalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda akademianing professor-o'qituvchilari yoshlarga ta'lim bermoqda. Oly ta'lim muassasasi dunyoning nufuzli klinikalar, ilm-fan markazlari bilan ta'lim va ilmiy sohalarda hamkorlik qilayotganini alohida ta'kidlash joiz. Bu jarayonda yosh o'qituvchi va magistrlarning malakasini oshirish, bilim va tajriba almashish, mamlakatimiz ilm-fani va tibbiyoti yutuqlarini xalqaro miqyosda keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu kabi ulkan vazifalar oldimizda turgan ekan, siz azizlarni, o'z kasbiga fidoyi bo'lgan kasb egalarini – Toshkent tibbiyot akademiyasi ma'muriyati va jamoasi nomidan "Tibbiyot xodimlari kuni" bayrami bilan chin yurakdan samimiy qutlaymiz. Xalq salomatligi yo'lida ishlaringiz hamisha bardavom bo'lsin!

Qadrli tibbiyot xodimlari! Qutlug' kasb bayram bilan yana bir bor samimiy muborakbody etib, barchangizga sihat-salomatlilik, ulkan zafarlar, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga fayzu baraka tilab qolaman.

Bayramingiz muborak bo'sin!

Alisher SHADMANOV,

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori

## JONKUYAR SHIFOKORLAR

2006 yildan buyon  
har yili noyabr oyining  
ikkinci yakshanbasi  
mamlakatimizda  
tibbiyot xodimlari  
kuni sifatida nishonlab  
kelinmoqda.



Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy-pedagogik jamoasi joriy yilda kasb bayramini Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatrda nishonladi.

Tadbir avvalida akademiya rektori, professor Alisher Shodmonov o'z vazifalarini sidqidildan, fidokorona, matonat bilan bajarayotgan tibbiyot xodimlariga salomatlik va muvaffaqiyatlar tiladi. Xalqimiz salomatligi yo'lida o'z huzur-halovatidan kechib, kechani kecha, kunduzni kunduz demay faoliyat olib borayotgan fidoyi shifokorlar sha'niga tahsinlar aytildi.

(Davomi 2-betda)

Hikmat



Konstitutsiya – baxtimiz kafolati

Hikmat





## JONKUYAR SHIFOKORLAR

(Boshi 1-betda)

Darhaqiqat, ular chindan ham davrimiz qahramonlari, el boshiga ish tushganida o'z burchini ortig'i bilan bajara olgan xaloskorlardir. Ular zimmasidagi mas'uliyat ham zalvorli, ham sharaflidir. Yangi O'zbekistonning yangicha taraqqiyot yo'lidan borayotgan oliy tibbiy ta'lim tizimida faoliyat yuritish, ham shifokorlik ham

pedagogik faoliyatni birga olib borish akademiya jamoasidan yanada mahorat, bilim, shijoat talab etadi.

O'z kasbiga sadoqati cheksiz ana shunday shifokorlarga tashakkurnomalar va esdalik sovg'alari topshirildi. Teatr jamoasi tomonidan konsert dasturi namoyish etildi.

**Mohigul QOSIMOVA,**  
O'ZA

## 18 noyabr – O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun

## BAYROG'IMIZ – MILLIY G'URURIMIZ

**O'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish g'oyasi, salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, eng avvalo, davlat ramzlari va timsollarida ifodasini topgan.**

Shuning uchun ham ota-bobolarimiz ramzlar va timsollarga hurmat va ehtirom ko'rsatganlar. Ajodolarimiz davlat timsollari va ramzlar uchun o'z jonlarini ham fido etganlar. Jangu jadallarda bayroqning qulashi yoki dashman qo'liga o'tishi mag'lubiyat bilan barobar turgan.

Kelajagi buyuk, mustaqil davlat barpo etilishi bilan "O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonun 1991 yilning 18 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i ramzi mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanat bayrog'lariiga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarini davom ettirgan holda, Respublika tabiatiga xos xususiyatlарини xalqimizning milliy va madaniy o'zligini ham aks etti. Bayrog'imizda xalqimizning xohish-irodasi, aql-salohiyati, milliy o'tmishimiz an'analarini ya'ninmoviy rang – mangu osmon, musaffo suv ramzi sharqda azaldan qadrlangan. Amir Temur ham o'z bayrog'iga shu rangni tanlagani tarixdan ma'lum. Oq rang – tinchlik

va barqarorlik timsoli bo'lib, yosh mustaqil davlat yo'lining charog'on bo'lishi. Qizil yo'llar – kuch tiriklik ramzidir ya'ni har bir tirik jonning qon tomirida oqayotgan qonimiz, yashil rang – orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtida butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyimqoda, uning ramzi ham yashil rangdir. Yarim oy – O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analarini, yulduzlar musaffo osmonning tinchlik ramzidir. Ya'ni bu o'lkada barkamollik, mukammallik timsoli hisoblanadi.

Respublikamiz davlat bayrog'i Nyu-York shahrida joylashgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorgohi va dunyodagi suveren davlatlar bayrog'lari qatorida turibdi. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarda Prezidentimiz boshliq davlat delegatsiyasini qabul qilish marosimlari, chet el davlatlar



delegatsiyalarini O'zbekistonda qabul qilish marosimlarida ko'tariladi.

O'zbekiston bayrog'i O'zbekiston Prezidenti qarorgohi Oqsaroy, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini binolariga ilib qo'yilgan. Sportchilarimiz jahon sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritib, shohsupaga ko'tarilgan paytda ham O'zbekiston bayrog'i yuqoriga ko'tariladi. Shu boisdan mamlakatimiz va jahon uzra bayrog'imizning ko'tarilishi, bir tomonidan, davlatimiz shonshuhratini ko'tarsa, ikkinchi tomonidan barchamizga quvonch, faxlanish, g'urur bag'ishlaydi.

N.HAKIMOVA



**Xalq salomatligini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish,  
jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalash doimo  
hukumatimizning diqqat-e'tiborida.**

Aholi orasida sog'lom turmush tarzini olib borish, zararli odatlardan voz kechish, sog'lom bo'lish, jismoniy va ruhiy jihatdan uyg'un kamol topishga intilishga yo'naltirilgan hayotiy falsafani shakllantirishni amalga oshirish respublikamizning barcha tibbiyat xodimlari oldiga ham bir qator vazifalarni bajarish kabi mas'uliyatni qo'yamoqda. Sog'liqni saqlash tizimida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar ham yurtimizda inson umri, uning sihat-salomatligi olyi qadriyat sifatida e'tirof etilayotganligi, ayniqsa, hozir "ko'rinmas dushman" – koronavirus pandemiyasi davrida shifokorlarimizning kasbiy jasorati, yuksak mas'uliyati amalda yanada ulug'lanayotganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga tizim moddiy-teknika bazasining muttasil yaxshilanishi, yetuk mutaxassislarini tayyorlashga e'tibor va tibbiyat xodimlarining har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi natijasida sohada ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz" nutqi ham mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi uchun muhim ahamiyat kash etadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat etib belgilandi. Mazkur hujjatda "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida belgilangan hamda "inson – jamiyat – davlat" degan yangi tamoyil faoliyatining amalga oshirilishining asosi hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida sifatli ta'lim-tarbiya masalasi doimiy e'tibor markazida bo'lish, bunda asosiy rol o'ynaydigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyojolar jamiyatimizga kerakligiga

alohiba urg'u berildi. Shu bilan birga xalqimiz salomatligini ta'minlash bundan keyin ham bosh vazifa bo'lib qolishi ta'kidlandi. Shu maqsadda tibbiyat sohasini yuqori samara bilan ishlaydigan tizimga aylantirish, tibbiyat sohasiga yo'naltiriladigan mablag'larni 2 barobar oshirish va kelgusi besh yillikda olyi toifali shifokorlar maoshini ming dollarga yetkazish mo'ljallanayotganligi, tibbiyatning birlamchi bo'g'ini orqali tibbiy profilaktika, oilaviy shifokorlar rolini oshirishga alohiba e'tibor berilishi belgilangan. Ushbu yo'nalishda kasalliklarning oldini olish masalasiga ham alohiba e'tibor qaratilgan.

Zotan, oxirgi yillarda butun dunyoda yurak qon-tomir tizimi, endokrin va

olish a'zolarining surunkali kasalliklari 3 foiz aniqlangan. Bularning barchasi esa tibbiyat xodimlari oldiga birlamchi bo'g'inda yuksak mas'uliyat bilan mehnat qilib, aholi salomatligini tiklash, muhofaza qilish borasida insonlarda o'z sog'lig'i e'tibor bilan yondashish, ularda tibbiy madaniyatni va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga erishish, ularni kundalik turmushda qo'llay olishlari va unga qat'iyan rioya etishlarini nazorat qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahan sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, sog'lom turmush tarzi rioya etilsa, 80 foiz yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, qandli diabetning 2-turi va o'sma kasalliklarining 40 foiz oldini olish mumkin ekan.

Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida aholining keng qatlamlarining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishini, ayniqsa bolalarni sportga jalb etishni faollashtirish, musobaqalar, ommaviy

sport va sog'lomlashtirish tadbirdilarini o'tkazishni tashkil etish ishlarni amalga oshirish ham muhimligi ta'kidlangan. Zotan, sport mashg'ulotlari va musobaqalarida qatnashish salomatlikni mustahkamlash va umumiyoj jismoniy rivojlanishining yaxshi vositasini sanaladi, qolaversa, sport dadillik, shijoatkorlik, chidamlilik, intizomilik, g'alabaga bo'lgan irodani, samarali mehnat faoliyati va Vatan himoyasi uchun zarur fazilatlarni tarbiyalaydi. Sport bilan doimo shug'ullanish – hayotbaxsh optimizm bilan to'lib-toshgan, kasalliksiz qarilikdir.

Zero, sog'liq har bir odamning ulkan boyligi, xalq sog'lig'i esa yurt boyligi hisoblanadi.

**Azim JABBAROV,**  
2-son fakultet va gospital terapiya kafedrasи mudiri,  
tibbiyat fanlari doktori  
**Shoira QODIROVA,**  
2-son fakultet va gospital terapiya kafedrasи katta o'qituvchisi,  
oliy toifali shifokor

## XALQ SOG'LIGI – YURT BOYLIGI...

onkologik kasalliklarning soni oshib borayotganligi va ularning ayniqsa yosharayotganligi va natijada o'lim va nogironlikning oshib borayotganligi kuzatilmoida. Jahan sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda dunyo bo'yicha 40 million o'lim holati yuqumli bo'lmagan kasalliklar tufayli yuz bergan bo'lib, bu barcha o'limning 70 foizini tashkil etgan. O'lim holatlarining anchagina qismi, jumladan, dunyo bo'yicha barcha o'limning 27 foiz, yuqumli bo'lmagan kasalliklarning esa 38 foizi erta, ya'ni 30 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan aholi orasida qayd etilgan. O'zbekistonda esa har yili barcha o'lim holatlarining 78 foizi yuqumli bo'lmagan kasalliklar tufayli yuz bermoqda.

2017 yilda jinsi va yoshi bo'yicha standartlashtirilgan o'lim sabablari umumiyoj tuzilmasida birinchi o'rinni yurak qon-tomir tizimi kasalliklari 69 foiz, shu jumladan yurak ishemik kasalligi, arterial gipertoniya va ularning asoratlari: miokard infarkti, insult, keyingi o'rinnlarda onkologik kasalliklar 8 foiz, qandli diabet 3 foiz va nafas



## QOMUSIMIZDA QONUN USTUVORLIGI VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

«Qayerda qonun hukmronlik qilsa,  
shu yerda erkinlik bo'ladi»  
**Amir TEMUR**

**Jahon hamjamiyatida har qanday demokratik davlatning tutgan o'rni, e'tibori, obro'si uning qonunlariga bog'liq.**

Zotan Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat va shu davlatda qonunlarning ustuvorligi, inson huquqlari, erkinliklari oly qadriyat ekanligi bilan dunyoga tanitadi. Konstitutsiyamizning yaratilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Turkistonda o'tgan yillarda jahon tajribasiga muvofiq tarzda bir nechta konstitutsiyalar ishlab chiqildi. Lekin ular o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra boshqa davlatlarning milliy respublikalar sharoitiga muvofiqlashtirib tuzilgan, haqiqiy hayotiy kuchga ega bo'lmagan konstitutsiyalarning nusxasi edi.

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990 yilda Mustaqillik deklaratsiyasini qabul qilinishi bilan bevosita bog'liq. Mazkur Deklaratsiyasi qabul qilinishi barobarida davlatimizning yangi konstitutsiysi ishlab chiqilishi lozim, degan xulosaga kelindi. 1991 yil boshlaridayoq konstitutsiyaning g'oyaviy mag'zi, ya'ni kontseptsiya tayyorlash ustida ish olib borildi. Komissiya tomonidan ma'qullangan kontseptsiya asosida bo'lajak Bosh Qomusimizning loyihasini yaratishga kirishildi. O'zbek xalqining tarixiy, milliy va ma'naviy xususiyatlari imkon qadar to'laroq aks ettirilgan loyiha puxta ishlovlardan so'ng umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yuridik hujjat hisoblanadi. Uning qoidalari hamisha hukmronlik, birinchi ta'sis kuchga egadir. Boshqa qonunlarning hammasi u yoki bu tarzda Konstitutsiyaviy me'yorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi va ro'yobga chiqaradi.

Konstitutsiya asosida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustaqillikning dastlabki yillarda respublikada joriy etilgan va hayot sinovi tajribasidan o'tgan yangi konstitutsiyaviy institutlar va boshqaruv idora tizimi: Prezidentlik boshqaruvi, hokimlik instituti, Konstitutsiyaviy nazorat, saylov tizimidagi o'zgarishlar, ko'p partiyaviylik, mulkchilik shakllarining xilma xilligi o'z aksini topdi.

Shu o'rinda Konstitutsiyaning boshidan oxirigacha xalqchillik ruhi bilan sug'orilganini ta'kidlash joiz. Xalq ommasining azaldan orzu qilgan o'z taqdirini o'zi belgilash kabi ezgu niyati unda belgilangan. Shu bois Konstitutsiya xalq hokimiyati prinsipiiga asoslanadi va uni mustahkamlaydi.

Xalq hokimiyati degan ibora butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan xalqniki ekanligini anglatadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, demokratizm – Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari hisoblanadi.

Konstitutsiyaning muqaddimasida xalqning demokratiya g'oyalariga inson huquqlari va ijtimoiy adolatga sadoqatli ekanligi



e'tirof qilingan. Bundan tashqari, davlat xalqning irodasi ifoda etishi uning manfaatlari yo'lida xizmat qilishi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonunlarning ustuvorligi ta'minlangan. Davlat uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar, konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (15-modda). Bu qoida ulug' davlat arbobi Amir Temurning "Qayerda qonun hukmronlik qilsa shu yerda erkinlik bo'ladi", degan g'oyaga aynan mosdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qudratli ma'naviy axloqiy kuchga ega. Unda avvalo insonparvarlik, adolat g'oyalari kafolatlangan. Buni Konstitutsiyaning boshidan to oxirigacha butun mazmunga singdirib yuborilgan umuminsoniy qadriyat va g'oyalar – adolat, haqiqat, tenglik, birodarlik, insonga g'amxo'rlik, xalqlar va millatlararo totuvlik, do'stlik, mamlakat va dunyo xalqlari birodarligi kabilar ochiq-oydin tasdiqlaydi.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki xalqimiz umuminsoniy qadriyatlar beshibini tebratgan xalqdir. Dunyo madaniyati va sivilizatsiyasiga sohibqiron Amir Temur, Ulug'bek, Bobur, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Imam Buxoriy, Bahauddin Naqshband, Yassaviy kabi ulug' zotlar munosib hissa qo'shib, dunyoga tanitdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Asosiy Qonunimiz jahondagi eng mukammal konstitutsiyalardan biri ekanligini butun dunyo tan oldi. U har jihatdan ixcham va keng qamrovlligi, xalqchilligi bilan alohida ajralib turadi. Unda, ayniqsa, umumjahoniy tajribalar, demokratik tamoyillar, milliy davlatchilik merosi bo'lgan "Avesto"dan tortib, "Temur tuzuklari"gacha bo'lgan an'anaviy prinsiplari asosida shakllantirilganligi e'tiborga molikdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davr va zamon talablari asosida hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning bosh tamoyili jamiyatimizda xalq manfaatlari yo'lida islohotlarni olib borish, inson huquqlarini, barqarorlikni va har bir oilani munosib hayot kechirishini, barcha fuqarolarning ishonchli istiqbolini belgilab bermoqda.

**Sh.YUNUSOVA,  
TTA Akademik litseyi ijtimoiy fanlar kafedrasini  
o'qituvchisi**



## FIDOKOR SHIFOKORLAR

**Golland olimi Van Tyulp meditsinani ramzi sifatida yonayotgan shamni taklif qilgan edi. Ya'ni sham yonib, o'zining atrofini yoritib o'zi erib ketayotganligi tib xodimining odamlar salomatligini asrashga qaratilgan umrini eslatib turadi. Hayotda ham shunday.**

Asrlar mobaynida tabiblar, shifokorlar o'z hayoti, umri va salomatligini tahlikaga qo'yib insonlar salomatligini asrab qolishga, umrini uzaytirishga harakat qilganlar. Bunga misollar juda ko'p. Hijriy yilning 638 yilda Yamanda o'lat kasalligi tarqaladi. O'sha paytda Yamanda voliy bo'lib turgan Abu Ubayda Jarrohiy o'zining yuqori lavozimiga qaramasdan xastahollar orasida yurib ularga tegishli tibbiy yordam ko'rsatadi va o'zi ham ana shu kasallikni yuqtirib hayotdan ko'z yumadi. Rus olimi, topografik xirurgiya va operativ jarrohlikning otasi Nikolay Pirogov efir narkozining ta'sirini birinchi o'zida sinab ko'radi. Shu bilan birga farang olimi Lui Paster o'zi ixtiro qilgan vaksinalarning bir qismini o'zida sinab ko'radi. Vilgelm Konrad Rentgen o'zi kashf etgan rentgen nurlarining meditsinada samaradorligini ham o'zini nurlanishi evaziga isbotlab beradi. Bugungi kunda

ham ana shu ulug' fidokor insonlarning davomchilarini, haqiqiy shifokorlar yetarlicha. Ular borligi uchun oramizdagi ma'lum foiz ilmsiz, ilmiga amalsiz, tibbiy deontologiya va kasb etikasidan mutlaqo bexabar, manfaatparast tib xodimlarimizning kirdikorlari ham yopilib ketadi.

Koronavirus pandemiyasining tajovuzkor shtammi dunyo kezib o'z mash'um ta'sirini ko'rsata boshlaganiga dekabr oyida ikki yil to'ladi. O'zbekiston Respublikasida uning tarqalish sanasi o'tgan yilning 3 martiga to'g'ri keladi. Shu boisdan ham 2020 yilning 23 martidan boshlab karantin e'lon qilingan edi. Bugungi kungacha ro'yi zaminda mazkur ofat 400 mln.ga yaqin odamni kasallantirib, qariyb besh million zamondoshlarimizning umriga zomin bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida mazkur davr mobaynida 200 mingga yaqin odamlar kasallanib, qariyb ikki ming

adam uning qurbaniga aylandi. Bu albatta Sog'liqni saqlash vazirligining statistikasi bo'lib, ularda va faqat PZR sinamasini natijasida isbotlangan kasallar va nobud bo'lganlar ro'yxatga kiritilgan, xolos. Aslida kasallanganlar va qurbanlar soni bir necha karra ko'p.

Ofat tarqalishi bilan davlatimiz tib xodimlari, shu jumladan nufuzli Akademiyamiz professor-o'qituvchilar, shifokorlari old saflarda turib unga qarshi kurashdi, taassufki ularning ma'lum foiz qismi kasallik yuqtirib asoratlari orttirdi. Yana ham qayg'ulisi biz bilan uzoq yillarda mazkur ilm dargohida faoliyat yuritgan olim va shifokorlarimizning ayrimlari kasallik asoratidan hayotdan ko'z yundilar.

Biz davlatimizda qabul qilingan shifokorlar kuni bayramini nishonladik. Koronavirus oqibatida insonlar sihat-salomatligi yo'lida jon fido qilib olamdan o'tgan barcha shifokorlarning oila a'zolarini bu qutlug' sana bilan qutlab, o'z qasamyodiga sodiq holda jon fido etgan mohir shifokor safdoshlarimizning muborak ruhlari oldida hamisha bosh egib, barchalarini oxiratlari obod bo'lsin deya Yaratgandan so'rab qolamiz.

**Alijon FAQIROV,  
Xalqaro "Ekologiya i zdorovye  
cheloveka" ilmiy akademiyasi  
akademigi,  
Qutbiddin NIZOMOV,  
Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi**

## "TIBBIYOT MOHIRLARI" BIRINCHI XALQARO OLIMPIADASI O'TKAZILDI

**Tibbiy ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida Toshkent tibbiyot akademiyasida "Tibbiyot mohirlari" birinchi Xalqaro olimpiadasi o'tkazildi.**

Unda talabalarning naqaqtan nazariy bilimlari, balki shifokorli faoliyatni muhim bo'lgan amaliy ko'nikmalarni egallash darajalariga alohida e'tibor qaratildi.

Olimpiadada yurtimizning 11 ta tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasasi hamda MDH davlatlari tibbiyot oliygohlari talabalari ishtirot etdi.

Ishtirokchilar tibbiy biologik fanlar, terapiya (ichki kasalliklar va nevrologiya), reproduktiv salomatlik (akusherlik va ginekologiya, pediatriya) hamda xirurgiya (anesteziologiya va reanimatsiya, xirurgiya; oftalmologiya,

otorinolaringologiya) yo'nalishlarida o'z bilimlarni sinovdan o'tkazdi.

– Akademiyamizda rivojlangan davlatlarning tajribasiga tayangan holda tibbiy ta'limgi rivojlantirishda innovatsion yondashuv asosida simulyatsion ta'limgizimini joriy etish, aholiga yuqori malakali xizmat ko'rsatishda mustahкам amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarini tayyorlashga qulay sharoitlar yaratilgan, – deydi Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori Alisher Shodmonov. – Olimpiada jarayoni zamonaviy ta'limgizimi talablariga ko'ra

innovatsion yondashuv asosida simulyatsion texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirildi. Raqobatbardosh, erkin fikrlay oladigan, qobiliyati zamonaviy shifokorlarni tarbiyalashda bugungi singari olimpiadalarning ahamiyati katta.

Talabalar bilimini adolatli baholash uchun tashqi ekspertlar guruhi, sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan yuqori malakali mutaxassislar, JSST va YUNESKO tashkilotlaridan yetuk mutaxassislar jalb etildi.

**Mohigul QOSIMOVA,  
O'Z**



## Mutolaa kishini mulohazaga chorlaydi, aqlni charxlaydi. O'y-fikrlaringda asar qahramoni ruhiyatiga tushishga undaydi.

Bugun odamlar, ayniqsa, yoshlar nega kitob o'qimay qo'ydi, degan savol qarshisida o'yga tolamiz. Nima uchun shunday? Ishlarimiz, uy-ro'zg'or tashvishlari shunchalik ko'pmi yoki kitob mutolaasidan uzoqlashdikmi?

Kitob o'qimaslikning asosiy sababi internet deya xulosaga keladiganlar ham topiladi. Holbuki, bugungi kunda axborot texnologiyasi rivojlangan, yoshlar bior kunini internetsiz tasavvur qilolmaydigan Amerika, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda kitob mutolaasiga munosabat tobora yuksalib bormoqda.

22 yildan beri ziyo maskanida ishlab kelayotganim, bir qancha ustozlardan ish o'rganib, mutolaa qilgan adabiyotlari haqidagi fikr-mulohazalarini, nasihatlarini eshitganmin bois kutubxonaga kelib an'anaviy bosma adabiyotlarni o'qish uchun olib ketayotgan turli toifadagi kitobxonlarimiz kamayib borayotgani dilni xira qiladi. Fond tarkibiga olinayotgan yangi adabiyotlar ichida o'quv adabiyotlari soni ko'proq bo'sada, badiiy asarlar (juda kam nusxa) ma'naviy-ma'rifiy risola va ma'lumotnomha nashrлari, jurnallar mintazam ravishda targ'ib etilib, ko'rgazmalarda namoyish etiladi. Navro'z bayrami tadbirlarida kitob savdo tashkilotlari va nashriyotlar tomonidan kitoblar savdosiga tashkil etiladi. Ana shu imkoniyatlardan foydalananuvchilar faoliqi ko'rinnmaydi.

Ayting-chi, o'qituvchi pedagoglar, yosh mutaxassislar o'z ustida ishlash bilim va mahoratlari oshirishlari uchun qo'shimcha uslubiy yordamni qayerdan oladi? Albatta shu sohaga oid adabiyotlar va mutaxassislik jurnallaridan foydalanshulari mumkin. ARM o'quv zalida har yili obuna bo'lingan jurnallardan O'zbekistonda chop etiladiganlari 59 nomda, Rossiya jurnallaridan 43 nomda foydalansh sharoti yaratilgan, badiiy asarlar 284 nomda o'zbek, rus tillarida 6535 nusxa barcha toifadagi kitobxonlarga ugya o'qish uchun abonenment asosida beriladi. Hozirgi kunda "Badiiy va xorijiy adabiyotlar" bo'limidagi kitobxonlar qatnovi yuzasidan professor-o'qituvchilar, assistant laborantlar va boshqa xodimlar toifasi ma'lumotlariغا razm soldim, sanoqligina kafedralar o'qituvchilar 2018, 2019 yillarda badiiy asar o'qigani olishgan, asosan faol kitobxonlarimizdan bo'lgan professor-o'qituvchilar 2012, 2013 yildan beri badiiy kitoblar so'rab murojaat qilishmagan, o'qigani olishmagan. Balki ko'plilik kitobxonlarimiz o'zlarining shaxsий kutubxonalarini yangi badiiy asarlarini sotib olib boyitishgandir. Albatta men xodimlarimiz kitob o'qimay qo'yishdi degan fikrdan yiroqman, lekin kitoblar mutolaasi borasida yosh avlodga

namuna ko'rsatishimiz kerak deb o'ylayman. Zero, mutolaa aqlni charxlaydi, teran fikrlash, keng tafakkur qilishga o'rgatadi.

Kutubxonaga ishga kelgan paytimda axborot resurslarini targ'ib etishda, foydalananuvchilarga yetkazishda katta tajribaga ega bo'lgan ustozlarim Antonina Bachinskaya, Venera Abdumavlonova (oxiratlari obod bo'lsin), Inoyat Shukurovalardan har bir kafedraga ommaviy axborot vositalarida chop etilgan dolzarb mavzulardagi maqolalar yetkazib berilgani, dars boshida talabalarga (ularni qiziqtirib) sohaga oid yangiligi yoki tarbiyaviy ahamiyatga ega mavzu muhokama qilib o'tilgani, jahon adabiyotni durdonalaridan qisqacha ma'lumot aytib, talabalarni mutolaaga chorlangani haqida eshitganman. Aynan shu tarzda kutubxona

joiz. Davolash fakulteti 2-kurs talabalari – Bobur Ismoilov, Afzalbek Yo'doshev, Gavhar Avalbekova, OMX fakulteti 3-kurs talabalari – Aziza Rustamova, Saida G'afforova, Ra'no Turg'unova, Nargiza Sobitova, Gulbahor To'yiveilar o'zlari sevib mutolaa qiladigan adabiyotlarni to'plab, mo'jazgina kutubxonalarini tashkil etishgan. Quvonarlisi esa bir-birlariga qiziqarli kitoblarini o'qishni tavsiya etib turishadi. Kutubxonaga faqatgina darslik yoki o'quv qo'llanmasi olish uchun keladigan tengdoshlariga kitobxonlar klubiga a'zo bo'lish, badiiy asarlarni o'qish orqaligina ma'naviy ozuqa olish, tibbiyot ilming yetuk mutaxassisiga aylanish uchun adabiyotlarni o'qish lozimg'ini aytishadi. Shu o'rinda kitobxonlikni targ'ib etish, yoshlar ma'naviyatini oshirishga qaratilgan imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan tadbirlar haqida to'xtalsam. ARM kitob fondida jami 4.446 nomdagi 154.441 nusxa adabiyotlar, elektron ko'rinishda 17608 ta, 105.006 nusxada o'quv adabiyotlari va 1333 nomda 7184 nusxada badiiy adabiyotlar va respublikada chop etiladigan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy jurnallar mavjud.

Kitobxonalar mavjud resurslardan foydalanshulari uchun "Badiiy va xorijiy adabiyotlar" bo'limidan uyda o'qish uchun abonenment asosida eng qiziqarli kitoblar, jurnallar beriladi. Virtual o'quv zalida kerakli adabiyotlarni elektron shakldagisini yuklab olish tavsiya etiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus"ni to'rtinchisi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish"ga yo'naltirilgan tadbirlarini davom ettirayotgan ARM jamoasi xizmat ko'rsatishning yangicha usullari ustida izlanib, kitob targ'iboti ishlarni kengaytirish, kitobxonlik klublari faoliyatini shakllantirishda Ma'naviyat va yoshlar bilan ishlash bo'limi bilan hamkorlikda bir qancha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazib kelmoqda. Kutubxona xodimlari talabalar turar joylaridagi o'quv zallarida yangi kitoblar taqdimotlari, O'zbekiston qahramonlari, yozuvchi shoirlar, ulug' yoshdag'i pedagoglar, shifokorlar bilan uchrashuvlari, babs-munozaalar, o'quv va ilmiy qo'llanmalarni videomateriallari, slaydlari namoyishi, dolzarb mavzulardagi ma'ruzalarni tashkil etishni aynan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida amalga oshiradilar.

Buyuklarimizning "Kitoblar – ong, tafakkur va ruhiyat ne'matidir" degan hikmatli so'zlari bilan mulohazalarimni niyoyasida kitob bilan do'st bo'lgan odam hayotda sira qoqlmasligi va sog'alom fikr, idrok bilan kamolga yetishini ta'kidlash joiz.

**Mohidilbonu NAZAROVA,  
ARM bo'lim mudiri**

### Kutubxona – nurxona

## MUTOLAA ZAVQIDAN UZOQLASHMAYLIK

axborot targ'ibotini yuritganmiz, hozirgi vaqtga kelib har bir bo'limda Internet tarmog'iga ulangan kompyuter texnikalari, tezkor skanner, nusxa ko'chirish uskunalarini, ichki lokal tarmoq va boshqa imkoniyatlar mavjud bo'sa ham, kutubxona axborot-resurslaridan unumli foydalansh kamroq nazarimda.

Kitobxonlikni keng targ'ib etish, yoshlarimiz orasida o'zbek klassik asarlari va jahon adabiyoti durdonalari mutolaasini targ'ib etishda kafedralar bilan yaqindan hamkorlik qilishimiz, yangi nashr etilgan qiziqarli badiiy asarlarni muallifi ishtirokidagi taqdimotini kafedralralar ham o'tkazishimiz ijobiy natija beradi. Badiiy asarlarni sevib mutolaa qiladigan kishidan sira yomonlik chiqmaydi, mutolaa zavqini his etgan har bir kitobsevardan faqat chiroyli fikr, aqli so'zlar eshitish mumkin.

Yoshlarimizni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish, kitobxonlarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish, faol kitobxonlar safini kengaytirish, ularning kitobxonlik madaniyatini oshirish borasida amaliy yordam berish ziyo tarqatuvchi kutubxona xodimlarining vazifasi hisoblanadi.

Shu o'rinda akademiyada eng faol kitobxon yoshlardan tashkil etilgan "Ibn Sino izdoshlari" kitobxonlar klubni a'zolari orasida badiiy adabiyotni sevib mutolaa qiladigan, she'riyatga oshno, o'zi ham ijod qiladigan talaba-yoshlarimiz anchagini ekanligini aytish



**1 dekabr – Xalqaro OITSga qarshi kurash kuni****KORONAVIRUS PANDEMIYASI DAVRIDA  
OITS MUAMMOLARI**

«Men o'limni yigitga harom qildim,  
Ammo u o'zini o'tga-cho'qqa ursa nima qilay”  
*Qudsiy hadislardan*

**Iqtibosda imom Dorimiylar rivoyat qilgan qudsiy hadisni bejiz keltirmadik. Zero, OITS sindromi asosan yosh-yalanglarning kasalliklaridan biri bo'lib, ayni o'zini o'tga-cho'qqa urishdan, tiyiqsiz xatti-harakatlardan kelib chiqadi.**

Kasallik haqida ilk bor 1981 yilda Amerikada ma'lumotlar paydo bo'lgan. Unda aholining asosan kambag'allar, besoqolbozlar, narkomanlar yashaydigan va fahsh avj olgan kvartallarida g'alati bir kasallikning ko'plab uchrayotganligi keltirilgan. Mazkur kasallik aholining ushbu qatlamida keng tarqalib, sababsiz tana harorating ko'tarilishi, limfa bezlarining shishi, ayrimlarida yo'talish boshqalarida mavhum sababli uzoq muddatli ich ketishi, qo'l-oyoqlarda o'smalar bilan namoyon bo'lar edi. Nihoyat 1982 yilga kelib shifokor olimlar, bakteriolog va virusologlarning zahmatli mehnati va bedor tunlari evaziga ushbu kasallik sababchisi topildi va unga orttirilgan immun tanqisligi sindromi deb nom qo'yildi. Ana shu sanadan mana qirq yil muddat o'tdi va kasallik dunyoning barcha hududlarida keng tarqaldi, bizning davlatimizni ham chetlab o'tmadidi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bergen ma'lumotlariga qaraganda kechmish qirq yil mobaynida OITSdan xazon bo'lganlar soni 80 mln.ga yetgan va bugungi kunda undan kasallanganlar soni 200 mln. dan oshadi. Bu ro'y'i zamin aholisining qariyb 4 foiz qismini tashkil qiladi. Bu ko'pmi, kammi? Albatta bugun yer sharida aholi soni 8 mlrd.ga yetganining e'tirof etgan holda har yili 12 mln.ga yaqin odam sil kasalligi va uning asoratlardan, 27 mln.ga yaqin odam avtohalokatlardan halok bo'lishi qiyosda uncha katta hisoblanmaydi. Ammo, kasallik nisbatan bedavo bo'lib, surunkali kechishi, tiyiqsizlik oqibatida tez tarqalishiga e'tibor bersak ahvolning ancha jiddiy ekanligini ko'rsatadi. O'tgan yili ijtimoiy tarmoqlarda Buxoroda mazkur kasallik tashhislangan ayol OITSni o'n besh kishiga jinsiy aloqa orqali yuqtirganligi keng tarqaldi. Ko'rib turibsizki odamiylik, mu'minlik va fuqarolik burchini o'zining turmush tarziga aylantirgan odamlardan bu mudhish kasallik uzoq yuradi.

Dekabr oyida koronavirusning tajovuzkor shtammi tarqalganiga ikki yil bo'ladi. Ana shu davrda bu kasallikdan vafot etganlar soni besh million, kasallanganlar soni esa 500 millionga yetdi. Respublikamizda esa kasallanganlar soni 185 mingga, nobud bo'lganlar esa 1378 taga yetdi (3 noyabr holatiga ko'ra). Pandemianing dastlabki davrida Italiya, Ispaniya, Angliyada o'lim holatlari juda ko'p qayd etildi. Albatta kasallikning ikkinchi, uchinchi to'lqinlari inson umrini unchalik katta xatarga qo'ymadidi, negaki yer shari aholisining



yoppasiga vaksinatsiyasi yo'lga qo'yilishi, odamlarda kasallikdan keyin tabiiy va ijtimoiy immunitetning shakllanishi, uning tajovuzkorligi ildiziga bolta urdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining bergen ma'lumotiga ko'ra nobud bo'lganlarning asosiy qismida ortiqcha vazn, surunkali kasalliklar, qandli diabet, moddalar almashinuvining buzilishi va albatta qonda TORCh infeksiyalar va OITS viruslari qayd etilganlar aniqlangan. Jumladan, OITS bilan og'rib yurganlar orasida koronavirusdan keyingi o'lim ko'rsatkichlari aholining boshqa qatlamlariga nisbatan 34,5 foizga yuqori bo'lgan.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish lozimki sog'lom turmush tarziga rioya qilib, davlatchilik qonuniyatları, insoniylik burchlari va albatta muqaddas islam dinimiz taqiqlagan fahsh va harom ishlardan yiroq yurganlar aqliy, jismoniy va jinsiyl salomatliklari me'yorda bo'ladi. 1 dekabr – Xalqaro OITSga qarshi kurash kuni. OITSdan xalqimiz va kelajak avlodni xalos etishda ko'proq targ'ib qilishimiz shifokorlik va fuqarolik burchimizdir. Shu o'rinda Genrix Geynening "Haqiqatni hamma vaqt takrorlab turishimiz kerak, chunki atrofimizda xatolar bot-bot takrorlanib turadi" degan o'gitini eslatib o'tish joiz. Kasalliklar va salomatliklar haqidagi haqiqatlarni qancha takrorlasak shuncha ozdir.

**Alijon FAQIROV,  
Xalqaro "Ekoliya i zdorovye cheloveka" ilmiy  
akademiyasi akademigi,  
Qutbiddin NIZOMOV,  
Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi**



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2021 yil noyabr)

Nº	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son fakultet va gospital terapiya kasb patologiyasi	assistant – 0,75
2.	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	ichki kasalliklar assistant – 0,75
2-son davolash fakulteti		
1.	Odam anatomiysi va klinik anatomiya	Klinik anatomiya: assistant – 1,0
2.	Patologik anatomiya	assistant – 1,0
3.	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	assistant – 1,0
4.	Onkologiya	katta o'qituvchi – 1,0
Tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	1-son ichki kasalliklar	assistant – 1,0
Tibbiy profilaktika fakulteti		
1.	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi	assistant – 1,0
Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMX fakulteti		
1.	Ijtimoiy fanlar	o'qituvchi – 1,0
2.	O'zbek va xorijiy tillar	Chet tili: o'qituvchi – 1,0
3.	Tibbiy va biologik kimyo	Biologik kimyo: katta o'qituvchi – 1,0
4.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistant – 1,0
5.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	assistant – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent  
tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.  
Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS: <b>TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI</b>	MUHARRIR <b>TURDIQUL BOBOMURATOV</b>	TAHRIR HAYATI: Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari), O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova, L.Abduqodirova, M.Hasanova	Gazeta Pentium-IV kompyuterda sahifalandi va Toshkent Tibbiyot akademiya RISOGRAFida 400 nusxada chop etildi. Manzilimiz: Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 2-uy <b>Nashr uchun ma'sul</b> Q.Nizomov
Gazeta Toshkent Matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda 02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan		Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun mualliflar javobgardir Bepul tarqatiladi	